




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2024-YIL YANVAR-AVGUST  
(DASTLABKI MA'LUMOT)






Tel.: 61-222-75-87  
[www.qrstat.uz](http://www.qrstat.uz)

## Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogi.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalarini tomonidan 13658,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 11212,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,1 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochen konlarni ishlash sanoatning – 27,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 18,7 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 24,2 % ga kamayish kuzatildi.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**—tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarini tomonidan 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 207,3 mlrd so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,5 % ga to‘g‘ri keldi.




1,5 %

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni  
ishlashning jami sanoat ishlab  
chiqarishi hajmidagi ulushi*



**yanvar-avgust oylarida yirik korxonalar bo'yicha**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)



**Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**




Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Ohaktosh, t.	116229,0	101800,2	-14428,8
Gaz kondensati, ming t.	43,0	37,7	-5,3
Tabiiy gaz, mln. kub.m	674,0	625,6	-48,4

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoat

**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu-tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11212,9 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 82,1 % ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

	Paxta tolasi	Dinatriy karbonati	Sement
2024-y.	165,9	107,0	269,4
2023-y.	104,1	102,3	115,3
2022-y.	118,8	118,5	116,1
O'simlik yog'i (tozalangan)		O'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2024-y.	109,2	200,5	68,0
2023-y.	147,7	114,6	52,2
2022-y.	40,8	77,3	92,8

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,1 % ni (2023- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,04 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 45,9 % (52,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 7,7 % (5,2 %), quyi texnologiyali – 46,3 % (42,5 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 46,6 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,3 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,8 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 19,5 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 %) ga to'g'ri keldi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,8 % (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,6 %), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 1,2 % (2023- yilning yanvar-avgust oyilariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,8 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-avgust oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 603,5 ming tonna portlandsement (2023- yilning yanvar-avgust oyalariga nisbatan 2,7 marta ko'paygan), 4,2 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (2,0 marta ko'paygan), 1,1 ming tonna makaron mahsulotlari (34,6 % ga ko'paygan), 28,8 ming tonna paxta tolasi (65,9 % ga ko'paygan), 36,3 ming tonna paxta chigit (43,8 % ga ko'paygan), 2073,8 ming litr aroq (0,2 % ga ko'paygan), 4,9 ming tonna o'simlik yog'i (9,2 % ga ko'paygan), 10,7 ming tonna kalava ip (9,7 % ga kamaygan) hamda 26,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (32,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust	2024- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirit	2069,2	2073,8	4,6
O'simlik yog'i, (tozalangan), tonna	4513,2	4928,8	415,6
Portlandsement,tonna	224027,0	603469,0	379442,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	39379,7	26788,2	-12591,5
Paxta tolasi, tonna	17368,9	28817,1	11448,2

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kimyo sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 45,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,7 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 5139,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga ornatiladigan qoplamlar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 33,6 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 535,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish**—yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,5 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1972,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish**—spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 113,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 212,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,7 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 13,5 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2318,5 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



## Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qligan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 134,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 292,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish**—rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 141,4 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 87,7 mlrd so'm kuzatildi.



## Mebel ishlab chiqarish

**Mebel ishlab chiqarish**—korxona hamda muassasalar, oshxona mebellarrarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.




2024- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 71,8 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 129,7 mlrd so'm ekani kuzatildi.



## Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar–kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2158,7 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 15,8 % ini) tashkil etgan.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 101,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 106,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust	2024-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
<b>Elektroenergiya, mln.kVt.s</b>	3466,9	3501,6	34,7
<b>Issiqlik energiyasi, ming gkal</b>	27,0	28,8	1,8
<b>Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm</b>	76388,9	99529,9	23141,0






\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish—qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 79,7 mlrd so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.




## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 20,9 % ga hamda xavsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 30,2 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 2,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust	2024- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	5924,0	6086,0	162,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	44967,6	54383,0	9415,4
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	6476,6	8429,4	1952,8

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra